



## SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
**2023- yil yanvar-sentabr**






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **5 358** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr nisbatan **551** taga kamaygan (o'sish sur'ati **90,7 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **83** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 275** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **13 246,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,1 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **404,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **81,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12 841,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 553,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,4 %**) tashkil etdi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>13246,1</b>	<b>104,1</b>	<b>404,8</b>	<b>81,2</b>	<b>12841,3</b>	<b>105,1</b>
Termiz sh. <i>tumanlar:</i>	2315,0	104,4	106,6	105,1	2208,4	104,3
Oltinsoy	535,1	109,2	5,8	84,4	529,3	109,6
Angor	653,5	100,8	4,8	16,0	648,7	104,9
Bandixon	199,1	121,3	2,1	89,7	197,0	121,8
Boysun	570,2	101,5	3,4	80,9	566,8	101,7
Muzrabot	537,1	104,6	4,7	88,7	532,4	104,7
Denov	2948,2	101,0	180,2	85,7	2768,0	102,2
Jarqo'rg'on	725,7	106,6	21,4	95,5	704,3	107,0
Qumqo'rg'on	569,8	100,1	6,0	81,2	563,8	100,3
Qiziriq	585,1	105,3	3,4	65,8	581,7	105,7
Sariosiyo	506,1	104,3	5,9	87,5	500,2	104,5
Termiz	245,4	101,8	5,9	37,7	239,5	106,2
Uzun	600,9	110,1	6,4	76,3	594,5	110,6
Sherobod	837,7	107,8	25,5	90,3	812,2	108,4
Sho'rchi	1417,2	104,9	22,7	51,9	1394,5	106,7

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Bandixon (**121,3 %**), Uzun (**110,1 %**), Oltinsoy (**109,2 %**) va Sherobod (**107,8 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

**Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi**  
*(yanvar-sentabr, mlrd.so'm)*




So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **109,8 %** ni yoki **10 170,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)**  
*(2022- yil, 2023- yil yanvar- sentabr oylari)*



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati **104,1 %** ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumanida **22,3 %** bilan **2 948,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Bandixon tumani **1,5 %** bilan **199,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12 841,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **5,1 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,9 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **18,8 %** ga kamaydi va **404,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **3,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (**99,4 %**), Boysun (**99,4 %**) va Angor (**99,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Denov 6,1 %), Termiz shahri (**4,6 %**), Sherobod (**3,1 %**) va Jarqo'rg'on (**3,0 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 676,3</b>	<b>101,7</b>
Termiz sh.	11 698,0	101,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 822,2	106,9
Angor	4 615,4	98,5
Bandixon	2 439,5	118,2
Boysun	4 639,4	99,5
Muzrabot	3 543,1	102,3
Denov	7 128,2	98,6
Jarqo'rg'on	3 096,1	104,1
Qumqo'rg'on	2 265,4	97,8
Qiziriq	4 784,0	103,1
Sariosiyo	2 254,2	101,9
Termiz	2 949,6	99,1
Uzun	3 248,1	107,7
Sherobod	4 029,3	105,5
Sho'rchi	6 298,8	102,4

2023- yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 676,3** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,7 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (**11 698,0** ming. so'm), Denov (**7 128,2** ming. so'm) va Sho'rchi (**6 298,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 553,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **116,4 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 181,0** mlrd. so'mni (**129,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 372,9** mlrd so'mni tashkil etdi (**106,9 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi mlrd. so'm



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda a	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2553,9</b>	<b>116,4</b>	<b>1181,0</b>	<b>129,8</b>	<b>1372,9</b>	<b>106,9</b>
Termiz sh.	166,2	191,0	166,2	191,0		
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	236,0	123,0	78,9	172,7	157,1	107,5
Angor	93,1	85,4	80,2	102,0	12,9	42,6
Bandixon	137,6	131,4	12,1	253,7	125,5	125,6
Boysun	149,2	96,0	61,2	78,6	88,0	113,5
Muzrabot	250,5	100,9	83,7	115,9	166,8	94,7
Denov	294,5	141,6	199,4	165,1	95,1	108,9
Jarqo'rg'on	151,1	107,4	57,3	91,3	93,8	120,3
Qumqo'rg'on	129,9	65,8	41,1	54,0	88,8	73,2
Qiziriq	178,7	114,0	58,8	122,1	119,9	110,3
Sariosiyo	189,7	113,1	46,1	75,7	143,6	134,4
Termiz	62,7	105,1	12,4	124,2	50,3	101,2
Uzun	186,8	132,9	108,9	160,4	77,9	107,2
Sherobod	100,1	177,6	87,9	197,6	12,2	102,8
Sho'rchi	227,8	132,9	86,8	163,0	141,0	119,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 181,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**620,4** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>620,4</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>148,6</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>111,0</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>33,9</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) <b>53,6</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</b> <b>44,7</b>
	<b>Tuxum</b> <b>43,2</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b> <b>13,7</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>20,0</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>27,2</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>20,5</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>44,2</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 372,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosи **1014,5** mlrd. so'm, qo'y va echkilar – **343,5** mlrd. so'mni, otlar – **10,6** mlrd. so'mni, parrandalar – **3,6** mlrd. so'mni, quyonlar – **0,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	<b>659,6</b>
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	<b>194,4</b>
 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	<b>160,5</b>
 Qo'ylar	<b>285,3</b>
 Otlar	<b>10,6</b>
 Echkilar	<b>58,2</b>
 Kurka, o'rdak, g'oz	<b>1,6</b>
 Tovuqlar	<b>2,0</b>
 Quyonlar	<b>0,7</b>
 Qushlar	<b>0,0</b>

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 345** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **304** taga kamaygan va o'sish sur'ati **81,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 343** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, **314,4** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,1 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **97,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>314,4</b>	<b>102,1</b>	<b>7,7</b>	<b>51,5</b>	<b>306,7</b>	<b>104,6</b>
Termiz sh.	122,6	112,6	6,5		116,1	106,6
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	6,8	100,8			6,8	100,8
Angor	8,6	101,9			8,6	101,9
Bandixon	1,6	102,4			1,6	102,4
Boysun	6,2	102,3			6,2	102,3
Muzrabot	7,8	100,9			7,8	100,9
Denov	54,9	105,9			54,9	105,9
Jarqo'rg'on	17,8	103,3			17,8	103,3
Qumqo'rg'on	8,2	100,8			8,2	100,8
Qiziriq	6,3	102,8			6,3	102,8
Sariosiyo	13,3	103,7			13,3	103,7
Termiz	23,0	94,7	1,2	48,6	21,8	99,7
Uzun	7,4	37,5			7,4	101,4
Sherobod	17,8	104,7			17,8	104,7
Sho'rchi	12,1	106,3			12,1	106,3

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 681,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **20,6 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **650,9 mlrd. so'm** (o'sish sur'ati – **105,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 030,7 mlrd. so'mni** (o'sish sur'ati – **133,0 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1681,6</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	698,7	41,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2,8	0,2
Angor	17,8	1,1
Bandixon	0,3	
Boysun	2,0	0,1
Muzrabot	1,0	0,1
Denov	868,6	51,7
Jarqo'rg'on	44,4	2,6
Qumqo'rg'on	2,4	0,1
Qiziriq	2,3	0,1
Sariosiyo	6,2	0,4
Termiz	12,9	0,8
<i>shahri</i>		
Sherobod	2,7	0,2
Sho'rchi	18,7	1,1

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri Denov tumani (**868,6** mlrd. so'm) va Termiz shahri (**698,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 033,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,2 %** ga o‘sdi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 529,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **118,3 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **87,5 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Qiziriq (**5,7 m.** va Uzun (**146,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 206** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **292** taga kamaygan, o'sish sur'ati **88,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **38** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 168** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4033,5</b>	<b>101,2</b>	<b>503,7</b>	<b>50,3</b>	<b>3529,8</b>	<b>118,3</b>
Termiz sh. <i>tumanlar:</i>	971,4	114,2	182,2	122,1	789,2	112,6
Oltinsoy	76,2	93,1	1,2	5,5	75,0	124,6
Angor	55,4	114,2	0,1	68,8	55,3	114,3
Bandixon	46,3	111,2			46,3	111,3
Boysun	29,6	108,6	0,6	35,1	29,0	113,2
Muzrabot	216,7	99,2	0,4	1,4	216,3	114,9
Denov	1399,0	112,6	88	43,3	1311,0	126,2
Jarqo'rg'on	166,3	92,6	0,2	0,6	166,1	117,8
Qumqo'rg'on	229,2	78,4	180,6	72,7	48,6	110,7
Qiziriq	21,0	116,1	0,2	5,7 m	20,8	115,4
Sariosiyo	126,6	121,1	4,3	139,4	122,3	120,6
Termiz	280,5	106,5	2,2	13,3	278,3	112,9
Uzun	97,3	126,5	43,4	146,8	53,9	113,7
Sherobod	79,4	62,4	0,1	0,2	79,3	114,5
Sho'rchi	238,6	57,7	0,2	0,1	238,4	111,8



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Tel. 76-225-65-74**